

## Buxoro viloyatida 2019 yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2921,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 116,5 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 385,2 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1532,9 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 1003,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 127,2 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 0,6 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 4,4 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 3,8 foizga kamaygan.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi


*jamiga nisbatan foizda*



**Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti**  
**2019 yil yanvar-avgust**  
(jamiga nisbatan foizda)



**2018 yil yanvar-avgust**  
(jamiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 62,8 foizi yoki 1833,4 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 63,7 foiz yoki 1516,5 mlrd. so'm), 37,2 foizi yoki 1087,7 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 36,3 foizi yoki 864,7 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'ektlarini (maktablar, kollejlari, sport hamda sog'liqni saqlash ob'ektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo'ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va ishootlarni qurilishiga 2014,6 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 69,0 foizni, fuqarolik ob'ektlarini qurilishiga 472,0 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 16,2 foizni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 434,5 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 14,8 foizni tashkil qildi.

*mlrd. so'mda*

	Amaldagi narxlarda	Umumiy hajmga nisbatan foizda	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
			Bino va ishootlarni qurilishi	Fuqarolik ob'ektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	2921,1	100,0	2014,6	472,0	434,5
Davlat mulki	177,0	6,1	1,5	152,1	23,4
Nodavlat mulki	2744,1	93,9	2013,1	319,9	411,1


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish

ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 foiz punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 foiz punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 foiz punktga ko'paydi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda



### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 2744,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 115,5 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,9 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 177,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 133,4 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 6,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz punktga ko'paygan.

	<b>2019 yil yanvar-avgust, mlrd, so‘m</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, foizda</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda</b>
<b>Jami mulkchilik shakli bo‘yicha</b>	2921,1	116,5	100,0
Davlat mulki	177,0	133,4	6,1
Nodavlat mulki	2744,1	115,5	93,9


### **2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o‘rinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 654,2 mlrd. so‘m, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 126,8 foizni tashkil qildi. Keyingi o‘rinni G‘ijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 300,5 mlrd. so‘mni, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 150,1 foizni tashkil qildi. Kogon tumanida esa 272,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 foizni tashkil qildi.

*mlrd, so'm*

	<b>2019 yil yanvar-avgust, mlrd, so'm</b>	<b>2018 yil yanvar-avgust, mlrd, so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, foizda</b>
<b>Jami</b>	<b>2921,1</b>	<b>2381,2</b>	<b>116,5</b>
Buxoro sh	654,2	489,4	126,8
<b>Kogon sh</b>	<b>64,4</b>	<b>72,7</b>	<b>84,2</b>
Olot	229,3	186,1	117,1
<b>Buxoro</b>	<b>246,6</b>	<b>182,3</b>	<b>128,5</b>
Vobkent	90,3	75,7	113,3
<b>G'ijduvon</b>	<b>300,5</b>	<b>190,2</b>	<b>150,1</b>
Kogon	272,2	240,2	107,6
<b>Qorako'l</b>	<b>119,2</b>	<b>104,9</b>	<b>107,8</b>
Qorovulbozor	182,7	191,9	90,4
<b>Peshko'</b>	<b>158,9</b>	<b>138,0</b>	<b>109,4</b>
Romitan	236,4	196,9	114,0
<b>Jondor</b>	<b>148,1</b>	<b>137,8</b>	<b>102,1</b>
Shofirkon	218,3	175,1	118,4

## 2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 22,4 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 10,3 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 9,3 foiz ulush bilan Kogon tumani egalladi.

### Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

A. Kilichev

Aloqa telefoni:

223-81-99, 0(371)230-83-10